

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**A. QODIRIY NOMLI JIZZAX
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Umumiy fizika” kafedrası

**AMALIY
FIZIKA**

(ma'ruzalar matni)

Jizzax - 2005

Ushbu fan 514200 – fizika – astronomiya mutaxassisliklari uchun tanlov fanlari blokida 1-semestrda mo'ljallangan. Unda fizika qonunlarining amaliy ahamiyati va qo'llanilishi to'g'risida talabalarga to'liq ma'lumot berish bilan bir qatorda ularni amalda talabalar tomonidan mustaqil bajarish uchun mo'ljallangan.

Ushbu ma'ruza matni 26 avgust 2005 yil "Umumiy fizika" kafedrasida yig'ilishida (№ 1 son) muhokama qilingan.

28 avgust 2005 yil Fizika-matematika fakulteti ilmiy kehgashida tasdiqlangan.

Muallif:

dots. D.T.Rasulov.

Taqrizchi:

JPI dotsenti A. A. Mustafiqulov.

Dinamika qonunlarining tadbiqu

Reja:


1. Nyuton qonunlari
2. Xarakat miqdori, uning saqlanish qonuni
3. Kuch impuls. Reaktiv harakat.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Inertsiya kuch, impuls, elastik prizma, jism impuls, kuch impuls, sekunda kilogramm metr (kg/m.s), Nyuton sekundlar (n/s), reaktiv harakat, qobiq, raketa soplasi.

I.Nyuton o'zining «Natural falsafaning matematik asoslari» (1678 y.) asarida bayon qilingan 3 ta dinamika qonunlari klassik mexanikaning asosini tashkil qiladi. Nyuton shu qonunlar asosida mexanika xodisalarini o'rganish usulini ishlab chiqdi va klassik mexanikaning mukammal nazariyasini yaratdi. Dinamikani o'rganishni moddiy nuqta dinamikasiga oid masalalarni ko'rib chiqishdan boshlash maqsadga muvofiq. Mazkur masalalarni o'rganishda kelib chiqadigan xulosalar keyinchalik ixtiyoriy jism harakatini o'rganishda qo'llaniladi. Nyutonning birinchi qonuni – inertsiya qonuni deb, xam yuritiladi, chunki u jismlarning inertsiya xossalari bilan bog'liq qonundir. Inertlik xaqida tushunchalardan bilamizki. Har qanday jism o'zining tich holatini yoki dastlabki, yani inertsiyaga ega. Massasi katta jismlarning tinch holati yoki harakat holatini saqlash xossalari kuchliroq, sezilarlirioq bo'ladi. Shuning uchun inertsiya hodisalarini kuzatish, namoyish etishda massasi kattaroq jismlar bilan tajribalar o'tkaziladi.

Masalan: ingichka engil ip orqali shtativga osilgan massasi etarlicha katta bo'lgan toshga ichkaridan ta'sir bo'lmasa, u o'zining harakat tinch holatini saqlaydi. Agar uning ostidagi bog'langan ip orqali keskin siltab tortsak tosh ostidagi ip uzilib ulguradi, lekin tosh va yuqoridagi ip o'zining avvalgi tinch holatida qoladi. Toshning tagidagi ipdan sekin astalik bilan uzoq muddat davomida pastga tortsak, yuqoridagi ip uziladi. Tajribalardan ko'rinadiki, tashqaridan tashqi ta'sir bo'lmasa, jismlar o'zlarining yinch yoki harakat holatini o'zgartirmaydi.



Nyutonning 1-qonuni: Agar jismga ta'sir etuvchi natijaviy kuch bo'lmasa, u o'zining tinch yoki to'g'ri chiziqli tekis harakat holatini saqlaydi. Ya'ni $F=0$; $A=0$ yoki $v=const$.

Nyutonning 2-qonuni: jismga ta'sir qilayotgan kuch, jismning massasi va uning ana shu kuch ta'sirida olgan tegishli orasidagi miqdoriy munosabatni belgilaydi. Jismga ta'sir qilayotgan kuchlar bilan ularning jismga bergan tezlanishlari orasidagi munosabatni aniqlaydi. Buning uchun ctolning silliq sirtida joylashgan aravachalardan foydalanamiz. Aravachaga ipning m massali yuk hosil qiladigan taranglik kuchi qo'yilgan. Bu kuchning qiymatini aniqlash uchun aravachaga ip

purjinali dinometr orqali ulangan. Aravachaning bir hil vaqt oraliqlarida bosib o'tgan yo'llarini o'lchab, uning tezlanishini hisoblab topish mumkin.

Yukning massasini o'zgartirish yo'li bilan ipning taranglik kuchi o'zgartirilib, qaytadan tezlanish hisoblansa, harakat haraktri o'zgarmay, faqat tezlanishning kattaligi o'zgarganini payqash mumkin. Bu tajribalar natijasida a F ifodaga ega bo'lamiz, ya'ni tezlanishlar jismga ta'sir qilayotgan kuchlarga proporsional bo'lishiga ishonch hosil qilamiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, a va F vektorlar kollinear bo'ladi. Shuning uchun kuchning tezlanishga nisbati o'zgarmas kattalikdir:

$$\frac{F_1}{a_1} = \frac{F_2}{a_2} = \frac{F_3}{a_3}$$

bu erda F_1, F_2, F_3, \dots va a_1, a_2, a_3, \dots mas vektorlarning son qiymatlari.


... mas vektorlarning son qiymatlari.

Mazkur tajribalarni og'irroq aravacha bilan takrorlab, ipning taranglik kuchi bir xil bo'lganda aravachaning olgan tezlanishi kuchliroq bo'lishiga, ya'ni og'irroq aravacha o'z tezligini sekinroq o'zgartishiga ishonch hosil qilamiz. Inertlik - barcha jismlarga ta'luqli bo'lgan muhim xossalardan biri biroq u har hil jismlarda turli darajada namoyon bo'ladi. Nyutonning 2-qonuni: - jismga ta'sir qilayotgan kuch jismning massasi bilan unga mazkur kuch bergan tezlanish ko'paytmasiga teng. $F=ma$. Massa – skalyar kattalik bo'lib, jismga ta'sir qilayotgan kuchning shu kuch ta'sirida jism tezlanishga nisbatiga teng: $m = \vec{F} / \vec{a}$

Nyutonning 3-qonuni: - jismlarning o'zaro ta'siri xaqida bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi: Xar qanday ikki jism bir-biriga son jixatdan teng. Va bitta to'g'ri chiziq bo'lib qarama-qarshi tomonga yo'nalgan kuchlar ta'sir qiladi. Bu qonundan tajribadan tekshirib ko'rish mumkin bo'lgan ikkita fikr:


1) Jismlarning bir-biriga ta'siri o'zaro ta'sir xarakteriga ega, ya'ni agar bitta mavjud bo'lsa, alabatta unga qarma-qarshi yo'nalgan ikkinchi kuch xam bo'lishi shart.

2) O'zaro ta'sirlashayotgan jismlarning bir-biriga ta'sir kuchlari son jixatdan o'zaro teng. Mazkur qonunlar quyidagi ko'rinishda yozish mumkin. $F_{12} = -F_{21}$



Bu shakllar bu qonunni tasavvur qilishga yordam beradi. Dinamikaning 3-qonuniga ko'ra, ta'sir va aks ta'sir o'zaro ta'sirlashish jarayonining ikkita tashkil etuvchilaridir. Shuni aytib o'tish kerakki, 3-qonunda boshqa-boshqa jismlarga qo'yiladigan kuchlar xaqida so'z yuritiladi, shuning uchun bu kuchlar bir-birini muvozanatlamaydi. Oddiy miltiq o'qining massasi kichik bo'lib, taxminan 2 gr keladi. bunday o'qni uloqtirib yuborilsa, osongina tutib olamiz. Lekin shu o'q miltiqdan otilib chiksachi? Qo'l bilan emas, to'rt qavat qulqop kiyib xam tuta olmaymiz. Demak, jismning massasi kichik bo'lsa, xam tezligi katta bo'lsa to'xtatish

qiyin masala ekan. Agar biz bolalar o'yinchoq aravachasi yurib kelayotgan bo'lsa, oyog'imizni tutib osongina to'xtatamiz. Agar xuddi shunday tezlik bilan yuk mashinasi kelayotgan bo'lsa, oyog'imizni olib qochamiz. Nega? Chunki, tezligi kichik bo'lsa xam massasi katta jismni to'xtatish qiyin. Demak, jism massasini tezligiga ko'paytmasi muhim kattalik ekan. Jism massasining uning tezligiga ko'paytmasi $P=mv$ alohida fizik kattalik bo'lib, harakat miqdori deiladi. Impuls – vektor kattalik. Jismning xarakat impulsi uni to'xtatish uchun ma'lum vaqt oralig'ida qanday kuch bilan uzluksiz ta'sir etish kerakligini ko'rsatadi yoki tinch turgan jism ta'sir etish kerakligini bildiradi. Cu sistemada impuls, massa va tezlik ko'paytmasi birligi [kg·m/c] da o'lchanadi. Shtativga osilgan matematik mayatnik ko'rinishdagi, to'rtta bir xil massali po'lat sharchadan ungdagi bittasini kichik burchakka og'dirib qo'yib yuborsak, qolgan sharchalarga urilib to'xtaydi. Chapdagi eng so'nggi bitta sharcha esa harakatda bo'ladi, undagisini ko'tarib qo'yib yuborilgan sharcha qanday burchakka og'dirilgan bo'lsa, bu sharcha chap tomonga shunday burchakka og'adi. O'rtadagi elastik sharchalar faqat ta'sir kuchini uzatuvchi jismlar vazifasini o'taydi. Quyib yuborilgan sharcha to'qnashish paytida v tezlikka va $p=mv$ impulsiga erishadi. To'qnashgandan so'ng chapdagi sharcha harakatga kelib $p=mv$ impuls oladi. Tajribadan xulosa qilib shuni aytish mumkinki jismlar sistemasininig impulsi to'qnashguncha qanday bo'lsa, to'qnashgandan keyin ham shundayligicha saqlanadi.



Tezlanish tezlik o'zgarishining jadalligini bilgan xolda Nyutonning 2-qonuni $F=ma$ formulasini boshqacha yozish mumkin. Tezlanish formulasini Nyutonning 2-qonuniga qo'ysak $F = m \frac{v-v_0}{t}$ ifodani topamiz. Bu erda $v-v_0$ – tezlikning o'zgarishi, t –bu o'zgarish yuz bergan vaqt lekin t kuchning ta'sir etib turish vaqti, chunki tezlik faqat kuch ta'sirida o'zgaradi. (1) formuladan tezlik $v-v_0 = \frac{Ft}{m}$ kattalikka o'zgargani ko'rinadi. Bu esa ayni bir f kuch ayni bir t vaqt davomida ta'sir etganda turli massali jismlarga tezlikni turli miqdorda o'zgartirishni bildiradi. (1) formuladan quyidagi ifodani yozish mumkin $\vec{F}t = m\vec{v} - m\vec{v}_0$ (2)


Bu tenglikning o'ng tomonida () kattalikning o'zgartirishi jism massasi bilan tezlik ko'paytmasi turibdi. Bu kattalikning maxsus nomi bor jismning impuls massasi bilan tezligi ko'paytmasiga teng bo'lgan kattalikdir.

$Ft=mv-mv_0$ Nyutonning ikkinchi qonunining boshqacha yozilishidir. Bu formula uni oldindan boshqacha tariflashga imkon beradi. Kuchning ta'siri natijasida jismning impulsi o'zgaradi. Impulsning o'zgarishi jismga qo'yilgan kuch bilan uning harakatlanish vaqti ko'paytmasiga teng. Bu esa ayni bir kuch ayni bir vaqt ichida xar qanday jismga impulsning ayni bir kattalikka o'zgartirishini bildiradi, chunki (2) tenglamaning chap tomonida massa kamaydi. Ft kattalikning xam nomi bor – kuch impulsi, oqibatda (2) formulaga asosan, jism impulsining o'zgarishi kuch impulsiga

teng. Jismning Mv impulsi va kuchning Ft impulsi vektor kattaligidir. Jismning impulsi vektor kattaligidir. Jism impulsining vektori tezlik vektori kabi yo'nalgan. Kuch impulsining vektori kuch vektori kabi yo'nalgan. (2) formuladan jismning mv impulsi sekundida kilogramm metrlarda ifodalanadi ($\text{kg}\cdot\text{m/s}$), kuch impulsi Nyuton sekundida ifodalanadi (N/s).

Impulsning saqlanish qonuni.

Jismlar xarakati qarama-qarshi yo'nalishda bo'lsa, xam to'la impulsning saqlanishini kuzatish mumkin.



Masalari bir biridan farq qiluvchi siqilgan elastik prujina bilan biriktirilgan 2 ta aravachani olaylik. Dastlabki xolatda xar bir aravacha tinch turibdi. Sistemaning to'la impulsi nolga teng. Pujinani bo'shatib yuborsa Nyutonning 3-qonuniga asosan aravachaga qiymati jixatidan teng. Lekin qiymati qarama-qarshi bo'lgan kuchlar ta'sir etadi. Xar bir aravacha qarama-qarshi yo'nalishda $P_1=m_1v_1$ va $P_2=m_2v_2$ impuls oladi. Aravachalarning teng vaqt oralig'ida bosib o'tgan S_1 va S_2 yo'llari xar xil bo'lib, undagi engil aravacha, nisbatan 2 marta yo'l bosdi. $S_1=v_1t$; $S_2=2v_1$ va $m_1=2m_2$ holganligi uchun $v_2=2v_1$ ga teng. U holda $m_1v_1=-m_2v_2$ ga teng yani aravachalarning olgan inpuclari qiymati jixatidan teng yonalishlari qarama-qarshidir. Sistemaning tola inpuclisi $P=P_1+P_2=0$ ga teng.

Reaktiv harakat

Impul'sning saqlanish qonunining amalda qo'llanilishini ko'rsatuvchi ajoyib va muhim hol reaktiv harakatdir. Jismning biror qismi undan qandaydir tezlik bilan qaralganda paydo bo'ladigan harakat rektiv harakat deyiladi. Raktiv harakatning tipik misoli raketalar harakatidir. Impul'sning saqlanish qonuni raketaning tezligini aniqlashda yordam beradi. Dastlabki yoqilg'ining yonishidan hosil bo'lgan gaz raketadan xaqiqatda bo'lganidek, sekin-asta emas, balki birdan otilib chiqadi, deb faraz qilamiz. Gazning massasini m_2 bilan, tezligini v_2 bilan belgilaymiz. Qobiqning masasi va tezligini mos ravishda m_q va v_q bilan belgilaymiz. Koordinata o'qini qobiqning harakati yo'nalishida olamiz, u holda gaz va qobiq tezliklarining proeksiyalari modul jihatdan v_2 va v_q vektorlarni modullariga teng, lekin ishorasi qarama-qarshidir. Qobiq va gaz impulslarining yig'indisi 0 ga teng bo'lishi kerak bo'lgani uchun ular proyeksiyalarining yig'indisi ham 0 ga teng bo'lishi kerak;

$M_2V_2 - m_qv_q = 0$ yoki $m_2v_2 = m_qv_q$ bundan qobiqning v_q tezligini topamiz $v_q = \frac{m_2}{m_q}v_2$

formuladan ko'rinib turibdiki chiqarib yuborilayotgan gazning tezligi bilan yonilg'ich massasining mutloq massasiga nisbatan qanchalik katta bo'lsa, raketa qobig'ining tezligi shunchalik katta bo'ladi. Masalan qobiqning tezligi gaz oqimining tezligidan 4 marta ortiq bo'lishi kerak. Qobiq raketaning uchirishdan oldin massaning 5 dan 1 qismini tashkil qilishi kerak. Vaholangki raketaning "foydali" qismi huddi shu raketadir. Zaruratga qarab raketani to'mo'zlash mumkin. Kosmonavtlar kosmik parvozni tuganlaganlaridan so'ng erga qaytishida o'z kemasining tezligi kamaytirilish uchun raketani tormozlaydilar. Ravshanki, gaz raketa soplasi raketa uchayotgan tomonga qarab chiqilsa, raketa o'z tezligini kamaytiradi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, dinamika u yoki bu ko'chishni keltiradigan sabablarni o'rganadi. Dinamikani o'rganishni moddiy nuqta dinamikasiga oid oid masalalarni ro'rib chiqishdan boshlash maqsadga muvofiq. Mazkur masalalarni hal qilishda kelib chiqadigan xulosalar keyinchalik ixtiyoriy jism harakatini o'rganishda qullaniladi.

Nazariy savollar:

1. Dinamikani nimani o'rganadi?
2. Nyutonning 1-qonuni.
3. Nyutonning 2-qonuni.
4. Nyutonning 3-qonuni.
5. Impuls deb nimaga aytiladi?
6. Kuch impulsi, jism impulsi nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Rahmatullaev "Umumiy fizika kursi". Toshkent, 1995 y.
2. X.M.Abduvohidov, T.T.Tursunov "Amaliy fizika". Toshkent, 1996 y.
I.K.Kikoin, A.K.Kikoin "Fizika 9 – sinf". "O'qituvchi". 1991 y.

Mexanik energiyaning saqlanish qonuni va uning qo'llanishi

Reja:

1. Kinetik energiya
2. Potensiyal energiya
3. To'liq energiya

Tayanch iboralar

Tezlik, tezlanish, kinetik energiya, potensiyal energiya, teorema,

Kinetik energiya

Jisimning xarakat energiyasi kinetic energiyasi deyiladi. Xarakat qilayotgan jism kinetic energiyaga ega bo'ladi; Xarakatdan to'xtasa, kinetic ebergiyasi yo'qoladi.

Kinetik energiya xarakat tezligiga bog'liq. Bir xil tezlik bilan ketayotgan , massalari har xil bo'lgan sharchalar biror to'siqqa urilsa , turlicha ish bajaradi. Massasi kichik jism to'siqqa urilishi natijasida to'htab qolsa , massasi katta jism to'siqni yo'qotib o'z xarakatini davom ettirishi ham mumkin. Demak, massasi katta jismning kinetic energiyasi ham katta bo'ladi.

Jismning kinetic energiyasi uning massasi va tezligiga qanday bog'liq ekanligini ko'rib chiqaylik. Tinch turgan **F** jism kuch ta'sirida tezlanish olib, **S** masofani bosib o'tadi va biror tezlikka erishadi. Jism tezlanishi $a = \frac{F}{m}$ bo'lsa ,

$$v^2 = 2 \frac{F}{m} S \text{ yoki } F S = \frac{m v^2}{2} \text{ gat eng bo'ladi.}$$

Ishqlanish va qarshilik kuchlari bo'lmaganda, **F** kuchining **S** kuchida bajarilgan ishi **A = F S** evaziga jism **Q** tezlikka va $E_k = A$ kinetic energiyaga ega bo'ladi.

$$E_k = \frac{m v^2}{2}$$

kuchning ishi jism kinetic energiyasining o'zgaruvchiga teng bu jumla kinetic energiya to'g'risidagi teorema deb ataladi.

Agar jismga kuch ta'sir qilsa , jismning kinetic energiyasi o'zgaradi. Kinetik energiyaning o'zgarishi kuch bajargan ishga teng. Agar har qanday jismda kuchning ishi ayni bir bo'lsa , (har qanday massada) kinetic energiya ayni bir kattalikka o'zgaradi. Kinetik energiya to'g'risidagi teoremaga asosan:


$$A = \frac{m v^2}{2} = \frac{m g^2}{2}$$

Potensiyal energiya.


Yer sathidan **h** balandlikda turgan jismga **P = mg** og'irlik kuchi ta'sir etadi. Agar jism qo'yib yuborilsa bu kuch ta'sirida yerga tushadi. Yerga uzulish paytida **g** tezlikka va og'irlik kuchining **h** kuchida bajargan ishi evaziga $E_k = \frac{m g^2}{2}$ kinetic energiyaga ega bo'ladi.

$$A = P h = m g h = \frac{m g^2}{2}$$

Bu tenglikka asosan h balandlikda turgan jism ishi bajara olish qobiliyatiga ega deyish mumkin, h balandlikda turgan jism $E_k = mgh$ potentsiyal energiyaga ega deyiladi.



1a - rasm



1b - rasm

Yer sirtida turgan m massali jismni juda sekinlik bilan ko'taraylik dh masofadan $dA = Fdh$ ish bajaradi. Jism keskin, tezlanishsiz ko'tarilganda har bir daqiqalarda \bar{F} muskul kuchi yo'nalishi \bar{P} qarama – qarshi va son jihatda kuchi \bar{P} ga teng bo'ladi.


Shu tartibda jismni h balandlikka ko'tarilganda bajarilgan to'la ish jismning og'irlik

kuchini engish uchun sarf qilinib, $A = \int dA = - \int_0^h Pdh = - mgh$ ga teng bo'ladi. Bu holda

jism ustida $A = mgh$ ish bajargan boladi.

Potentsiyal energiya kinetic energiya bilan birga jismning to'la mehanik energiyasini tashkil etadi. Agar jism potentsiyal kuchlar maydonida bo'lsa, uning to'la energiyasi saqlanadi. Quyosh sistemasidan chiqib keta oladigan raketa uchirish uchun unga juda katta ($9 \sim 11 \text{ km/s}$) tezlik berish kerak. Chunki raketaning yerdan uzoqlashishiga potentsiyal energiyaning oshishi kinetic energiyaning kamayishi hisobiga ro'y beradi. Faqat og'irlik kuchlarigina emas, balki elektrostatik o'zaro ta'sir kuchlar ham potentsiyal kuchlardir. Yer va undan h balandlikda turgan jismdan iborat sistemada ularga tashqi kuchlar ta'sir etmasa sistemaning kinetic va potentsiyal energiyalari o'zgarmay saqlanadi.

(2 – rasmga qaraymiz).



2 - rasm

h balandlikda tash $E_p = mgh$ potentsiyal energiyaga ega bo'lsa, yerga tushganda kinetik $E_k = \frac{mv^2}{2}$ energiyaga ega bo'ladi va $E_p = E_k = mgh = \frac{mv^2}{2}$ ga teng. Tash ergacha tushish jarayonida xarakatning har bir nuqtalarida to'la energiya $mgh + \frac{mv^2}{2} = E_p + E_k$ o'zgarmas saqlanadi.

To'liq energiya.

To'liq mehanik energiya. To'liq mehanik energiyaning saqlanish qonuni.

Agar ikki tur energiyadan bir turi ikkinchi turi kamayguncha ortsa, u holda ikkala energiya yig'indisi o'zgarmay qoladi. Bu hulosa $E_{k2} - E_{k1} = -(E_{p2} - E_{p1})$ formulani quyidagicha yozish mumkinligidan kelib chiqadi. $E_{k2} + E_{p2} = E_{k1} + E_{p1}$ Tenglikning chap qismida jismlar sistemasining biror paytdagi kinetik va potentsiyal energiyaning yig'indisi turganini, o'ng qismida boshqa paytdagi o'sha yig'indi turganini ko'ramiz. Bu yig'indi sistemaning **to'liq mehanik energiyasi** deb atiladi. Ichida og'irlik ta'sir qiladigan jismlar sistemasiga, masalan, "erga tushayotgan jism yoki erdan yuqoriga otilgan jism" sistemasidan to'liq mehanik energiya $mgh + \frac{mv^2}{2}$ ga teng. Agar sistema jismlar o'rtasida elastik kuchlari ta'sir qilsa, u holda to'liq mehanik energiya $\frac{kx^2}{2} + \frac{mv^2}{2}$ ko'rinishda yoziladi.

Nazorat savollari.

1. Energiya o'zi nima?
2. Kinetik energiya deb nimaga aytiladi?
3. Energiyaning turlari haqida .
4. $A = Ph = mgh = \frac{mv^2}{2}$ formulani yozing.
5. Agar jismga kuch ta'sir qilsa, jismning qanday energiyasi o'zgaradi?

Fo'dalanilgan adabiyotlar.

1. Fizika. O.F. Kabardin
Toshkent 1992 yil
2. Amaliy fizika Toshkent 1996 yil
X.M. Abduvohidov.
M.I. Turg'unova.
T.T. Turg'unova.
3. Fizika Toshkent 1994 yil
Q.Ya. Myakishev.
B.B. Buxovev.

Tabiatda fundamental kuchlar.

Reja :

1. Butun olam tortishish qonuni.
2. Kepler qonunlari.
3. Er bilan oyning o'zaro ta'sir kuchi.

Kundalik turmushda turli kuch tushunchalariga duch kelamiz :

Eshikni ochuvchi yoki erdagi yukni ko'taruvchi muskul kuchi ; yuk kranining ko'tarish kuchi ; Aftomabil yoki paravozning tortishish kuchi ; eshiklardagi hamda transport vositalardagi purjinaning elastik kuchi, erning oy harakatiga ta'sir kuchi , tormuzlarni boshqaruvchi suyuqlikning gidravlik kuchi yoki to'satdan mashina borib urilgandagi to'siqning to'xtovchi mexanik kuchi va boshqalardir.

Amalda biz ishlatadigan yoki uni yengib o'tishingiz kerak bo'lgan barcha kuchlar, ularning nomlari qanchalik turli-tuman bo'lishligidan qat'iy nazar tabiatda mavjud bo'lgan turli xil fundamental kuchlarning turli sharoitdagi ko'rinishlaridir. Tabiatdagi barcha voqiya va hodisalarni boshqaruvchi bu kuchlar gravitasion ta'sir kuchi , hamda elektromagnit ta'sir kuchi qisqa masofada namoyon bo'luvchi kuchli ta'sir va zaif kuchlaridir.

Kundalik turmushdagi turli-tuman hodisalarda , asosan gravitasion ta'sir kuch hamda elektromagnit ta'sir kuchlari ko'proq namoyon bo'ladi. Masalan, erkin oyga ta'siri gravitasion ta'sir bo'lsa , ishqalanish kuchlari ,gaz molekulalarining barometric va boshqa jismlarga bosim kuchlari akkumliyatorlarning electr yurutuvchi kuchi va boshqalar. Elektromagnit ta'sir kuchlarinign namoyon bo'lishidir. Bu kuchlar uzoqdan ta'sir etuvchi kuchlar hisoblanadi va ancha masofada ham effektiv kuch ta'sir ko'rsatadi. Yadroviy kuchli ta'sir va kuchsiz ta'sir kuchlar asosan atomlar dunyosida yadro o'lchamlariga yaqin bo'lgan qisqa masofalarda namoyon bo'ladi. Shu bois bu kuchlar yaqindan ta'sir kuchlari deb yuritiladi. Yaqindan ta'sir kuchlar yadroviy reaksiyalarni boshqaradi va inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Er ustidagi hayot quyoshdan taralayotgan energiya undagi bo'layotgan yadroviy reaksiyalar matijasidir. Hulas murakkab dunyo tabiat qonunlari va harakat hodisalari atiga to'rt xil fundamental kuchlar bilan ega. Shuning uchun ham v yo'nalishida uzoqlashib ketolmaydi. Erga tushadi va aylana bo'ylab xarakat qiladi. N'yutonda olmaning erga tushishi bilan oyning v "tushishi" ga sabab tortishish kuchi emasmikan degan savil tug'iladi va oyning "tushush" tezlanishni uning orbitasi parametrlaridan aniqlashni kirishadi. Erdan oygacha bo'lgan masofa Er radiusidan 60 marta kattaligi uchun ($z=60R$) N'yutonga ma'lum edi. Oyning chiziqli tezligi quydagicha hisoblanadi

U holda oyning markazga intilma tezlanishi

$A_n = 2.723 \cdot 10^{-3} m/s^2$ teng. Ya'ni oy


$A_n = 2.72 \cdot 10^{-3} m/c^2$ ga teng bo'lgan kichik tezlanish bilan "tushar" ekan.

Oyning "tushish" tezlanishi jismlarning yer sirtiga yaqin nuqtalardagi erkin tushish tezlanishidan ko'p marta kichik/ Yer sirti yaqinida barchi jismlar bo'shliqda bir xil ($Q=9,8m/c^2$) tezlanish

biolan tushishi. Faliliy tajribasidan ma'lum edi.

Nyutonning

o'zi ham oltin, qo'rg'oshin, shisha, qum, tuz, suv, yog'och, bug'doy kabi moddalarning to'plamidan foydalangan holda tajriba o'tkazib barcha jismlar



havosiz fazoda bir hil tezlanish bilan tushishini aniqlagan. U buni tushinish uchun o'zining optika sohasidagi bilimlariga tayandi. Yorug'lik intensivligi manba'dan uzoqlashgan sari masofa kvadratiga proporsional ravishda $1/r^2$ ravishda kamayib boradi. Nyuton yerning sirtiga yaqin turgan jismlarga va oyga gravitatsion ta'sir kuchi ham fazoda yorug'lik kabi tekis tarqalishi kerak deb hisoblanadi. Yerning gravitatsion tortishish kuchi ham masofa kvadratiga teskari proporsional o'zgaradi. ($F \sim 1/r^2$) Yer bilan oy orasidagi masofa ularning massa markazlari orasidagi masofa bo'lishligini ko'rsatadi. Yerning to'la massasi jismlarga va oyga gravitatsion ta'sir etadi. Yer markazidan uning sirtigacha bo'lgan R masofa 60 marta katta. Shuning uchun yerning oyga ta'sir kuchi a boshqarib turadi/ Balki bu to'rt hil kuch o'z navbatida ikkita yoki bitta umumiy fundamentlar kuchining turli ko'rinishidir degan fikrga ham kelishimiz mumkin. Yuqori energiyali elementar zarralar ustida olib borilgan so'ngi tajribalar elektromagnit ta'sir kuchli yadroviy ta'sir hamda zayif ta'sir kuchlari orasida o'zaro bog'lanish borligini ko'rsatadi. Klassik mehanika qonunlari jumladan gravitasiyon ham mahsus nisbiylik nazariyasi mexanikasining xususiy xollaridir. Ma'lumki, "elektr" bo'limi qonunlari va alohida "magnitizm" bo'limi qonunlari o'rganiladi. Oqibatda elektr va magnitizm bo'limlari qonunlari. Maksvelning yagona elektromagnit nazariyasining yagona xususiy xollari ekanligiga ishonch hosil qilamiz shu bois gravitasiyon ta'sir hamda elektromagnit ta'sir qonunlari ham yutuqlaridagi biror yagona fundamental ta'sir qonunlarining xususiy ko'rinishlari emasmikan? Lekin u bunday xarakterning sababini, mohiyatini tushunmas edi. U.N'yuton oyning yerga nisbatan xarakterini kinematik va dinamik taxlil qilishga kirishdi. I.N'yuton fikriga oy erga tomon to'g'ri yo'nalishda harakat qilmaydi, balki, doiraviy chiziq bo'ylab er atrofida aylanadi, uning aylanish davri **1-27.3** kecha – kunduzga teng. Trayektoriyaning har bir nuqtasida chiziqli tezlik deorim qiymati o'zgarmaydi. Lekin egri chiziqli harakatda u markazga intilma $Q_n = \frac{v^2}{2}$ tezlanishga sirtidagi nuqtada bo'lgan jismga ta'sir kuchidan 60 marta

kichik bo'lishi kerak. Oyning "tushush" tezlanish. $a = \frac{1}{(60)} * \frac{9.8m/c^2}{3600} = 2.72 * 10^3 \frac{m}{c^2}$

N'yuton xisoblanishlarining bu natijalari, Er bilan oy orasidagi gravitasiyon kuch masofa kvadratiga teskari proporsional o'zgaradi degan farazning to'g'riligini isbotlaydi. Biroq oyning markazga intilma tezlanishini jismlarning erga erkin tushish tezlanish bilan taqqoslashda, masofalar haqiqatdan ham erning markazidan hisoblanishi kerakligini isbotlab bera olmagan uchun u barcha hisoblashlarning natijalarini u paytda e'lon qilishga shoshilmaydi. Nemis olimi Iogank Kepler, daniyalik astranom Tixo Bragening ko'p yillar davomida quyosh sistemasidagi sayyoralar harakatini xususan Mars harakatini kuzatishi natijasida qayta ishlab chiziq o'zining uchta qonunini yaratdi:

1- Qonun sayyoralar elliptik orbitalar bo'ylab harakatlanadi, ellipsis fokuslaridan birida quyosh turadi.

2- Qonun quyoshdan sayyora o'tkazilgan radius – vector teng vaqtlar oralig'ida teng yuzalar chizadi.

3- Qonun ellipslar katta yarim yuklari, kublari aylanish kvadratlariga proporsionaldir. I.N'yutonning butun olam tortishishi qonuni **1687** yili dunyoga kelgan. N'yuton o'zi yaratgan dinamika qonunlarida erning **m** massasi jismga ta'sir kuchi jism massasiga proporsional $F_{rp} \sim m$ deb hisoblanadi, Dinamikaning uchunchi qonuniga ko'ra esa, jismning o'z navbatida erga huddi shunday kuch bilan ta'sir ko'rsatishini nazarga olib, u

o'zining butun tortishish qonuni yaratadi. $F_{rp} = G \frac{M m}{r^2}$ Butun olam tortishish qonuni, oy,er atrofida harakatlanadi. Merkuriy , vanera , mars m Yupiter va quyosh sistemasidagi boshqa planetalar quyosh atrofida aylanadi. N'yuton planetalarning quyosh atrofidagi harakat

quyoshga yoʻnalgan va undan masofasining kvadratiga teskari proporsional tortishish kuchi taʼsirida yuz berishini isbotladi. Bu kuchlar N`yuton uchunchi qonuniga asosan oʻzaro teng.

$$F_{og} = G \frac{m_1 m_2}{r^2}$$

Aniqlangan qonuniyatlarni – oʻgʻirlik kuchining oʻzaro taʼsirlashuvi jismlar orasidagi masofaga va ularning masofalariga bogʻliqligini koinotdagi hamma jismlarning oʻzaro taʼsirlashishiga tadbqiq qilib, N`yuton 1682 yilda butun olam tortishish qonunini kashf qildi, hamma jismlar bir-biriga tortiladi, butun olam tortishish kuchi jismlarning massalarikoʻpaytmasiga toʻgʻri proporsional va ular orasidagi masoofaning kvadratiga teskari proporsional:

Bu holda jismlar orasidagi **R** masofa uchun sharlarning markazlari orasidagi masofa qabul qilinadi/ Butun olam tortishish kuchlarini gravitatsion kuchlar, proporsionallik koefitsenti **Q** ni esa butun olam tortishish qonunida gravitatsion doimiylik deyiladi.

Gravitatsion doimiylik. Agar yer shari bilan bir boʻlagi orasida tortishishi kuchi mavjud boʻlsa u holda, ehtimol yer sharining bunday fikran boʻlishni davom ettirib, biz gravitatsion kuchlar yulduzlardan va planetalardan molekula va atomlar hamda elementar zarrachalargacha har qanday jismlar orasida taʼsir qilish kerar deb faraz qilamiz. Bu farazni ingliz Genri Kovendish (1731-1810) 1788 yilda tajribada isbotlaydi. Kovendish oʻlchamlari aniqlashga oid boʻlmagan jismlarning gravitatsion oʻzaro taʼsirini aniqlashiga oid tajribalarni burama tarozi yordamida bajaradi/

Osmonning buralishida vujudga keladigan elastiklik kuchi sterning burilishiga qarshilik gravitatsion oʻzaro taʼsir kuchini osmonning burilish burchagiga qarab aniqlash mumkin. Shuning uchun tajriba butun olam tortishish qonunidagi gravitatsion doimiylik **G** ni aniqlashga imkon berdi. U quyidagilarga teng : **G=6,67*20*10⁻¹¹H*m²kg⁻².**

Oddiy mashina va mexanizmlar.

Reja:

1. Richaglar. Mexanikaning oltin qoidasi.
2. Bloklar
3. Qiya tekislik
4. Oddiy mexanizmlarning texnikada va turmushda qo'llanilishi
5. Mexanizmning foydali ish koeffitsiyenti


Tayanch iboralari.

- | | | |
|-------------------|------------------|-------------------|
| 1. Oddiy mexanizm | 5. Qiya tekislik | 9. Ko'char blok |
| 2. Richag | 6. Pona | 10. Ko'chmas blok |
| 3. Blok | 7. Vint | |
| 4. Chig'iriy | 8. Kuch yelkasi | |

1. Qadim zamonlardan beri odamlar mexanik ish bajarish uchun turli moslamalardan foydalanib keladilar. Bevosita qo'l bilan siljitib qo'yish mumkin bo'lmagan og'ir buyumlarni joyidan qo'zg'atish uchun, yetarlicha uzun va mustahkam tayoq-richaklardan foydalanganlar.

Kuchni o'zgartirisha xizmat qiladigan moslamalar **mexanizmlar** deb ataladi. Oddiy mexanizmlarga: richag va uning turlaridan-blok, chig'iriy; qiya tekislik va uning turlaridan-pona va vintlar kiradi. Richag-qo'zg'almas tayanch atrofida aylana oladigan qatjismidir. Ushbu rasmda O aylanish o'qi kuchlar quyilgan A va B nuqtalar orasida joylashgan richag tasvirlangan.

Richakka ta'sir ikkala F_1 va F_2 kuchlar bir tomonga yo'nalgan richagga qo'yilgan kuchning ta'sir chizig'I bilan tayanch nuqtasi orasidagi eng qisqa masofa **kuchning elkasi** deyiladi. Bu yerda $IOAI=l_1 \cdot F_1$ - kuchning yelkasi; $IOBI=l_2 \cdot F_2$ kuchning yelkasi ekanligi ko'rinib turibdi.



Richakka uning tayanch nuqtasidan har ikki tomonga, richag har safar muvozanatda bo'ladigan qilib, turli yuklar osiladi. Richakka ta'sir etuvchi kuchlar bu yuklarning og'irligiga teng. Har bir hol uchun kuchlarning moduli va ularning yelkasi o'ranatiladi. Rasmda 2H kuchning 4H kuchni muvozanatlashi ko'rsatilgan. Bunda,

rasmdan ko`rinishicha, kichik kuchning yelkasi katta kuchning yelkasidan ikki marta ortiq.

Shunday tajribalarga asoslanib, richakka ta`sir qiluvchi kuchlar shu kuch yelkalariga teskari proporsional bo`lganda richag muvozanatda bo`ladi. Bu qoidani formula ko`rinishida quyidagicha yozish mumkin.


$\frac{F_1}{F_2} = \frac{l_2}{l_1}$ Richagning muvozanat qoidasi Arximed tomonidan aniqlangan. Agar

richag harakatga kiritilsa, bunda ayni bir vaqt ichida F_2 kuchning qo`yilgan nuqtasi katta S_2 yo`l o`tadi, katta F_1 kuchning qo`yilgan nuqtasi kichik S_1 yo`l o`tadi.

Bu yullarni va kuch modellarini o`lchab richagda kuchlar qo`yilgan nuqtalarning o`tgan yo`llari uzunligi kuchlar kattaligiga teskari proporsional, yani:

$\frac{S_1}{S_2} = \frac{F_2}{F_1}$ Demak kuchdan qancha yutqazsak, masofadan shuncha yutamiz, yoki


masofadan qancha yutqazsak, yuldan shuncha yutamiz, yoki masofadan qancha yutqazsak, kuchdan shuncha yutamiz.



2. Blok. oboymaga maxkamlangan g`ildirak bo`lib, uning aylanasi nov shaklida o`yilgan bo`ladi. Blokning novi orqali ip arqon yoki zanjir o`tkaziladi. Blokning ikki turi mavjud bo`lib, ular kuchar va kuchmas bloklarga bo`linadi.

Ko`chmas blok deb, yukni kutarganda o`qi kutarilmaydigan va pasaymaydigan blokka aytiladi. Kuchmas blokni kuch yelkari g`ildirak radiusiga teng bo`lgan teng yelkali richag deb qarash mumkin. Bunday blok kuchdan yutuq bermydi, ammo kuch ta`iri yunalishini o`zgartirishga imkon beradi. $OA=OB=r$ $P=F$

Kuchar blok o`qi bilan birga ko`tariladigan va tushadigan blokdir.



Yuqoridagi rasmlarda blokning tayanch nuqtasi: OA- kesma P kuch yelkasi va OB kesma F kuchning yelkasi. OB yelka OA yelkadan ikki marta uzun bo`lgani uchun F kuch P kuchdan ikki marta kichik bo`ladi,


ya'ni $F = \frac{P}{2}$ Shunday qilib ko'char blok kuchdan ikki marta yutuq beradi. Ko'pincha amalda ko'chmas blok bilan ko'char blok kombinatsiyasi qo'llaniladi.

3. Ko'p hollarda og'ir yuklarni biror balandlik ko'tarish o'rniga uning shu balandlikka qiya tekislik bo'yicha do'malatib yoki sudrab olib chiqadilar. Buning sababi jismni to'g'ri vertikal bo'yicha h balandlikka, F_1 – kuch ta'siri ostiga ko'tarilsa, bunda kuchlar farqi mavjud bo'ladi. Bunda $S > h$ bo'lgani uchun $F_1 > F_2$ bo'ladi, ya'ni masofadan yutsak, kuchdan yutqazamiz. Shuning uchun biz og'ir yuklarni qiya tekislik bo'yicha yuqoriga ko'taramiz. Brusokka 3ta kuch tasir qilyapti : $\vec{F}_{ov} = m\vec{g}$ – og'rlik kuchi F_{ishq} -ishqalanish kuchi, tayanchning \vec{N} -reaksiya kuchi. Bu kuchlarning yunlishlari rasmda ko'rsatilgan. Uchala kuch birgalikda brusokka qiya tekislik bo'ylab pastga yonalgan \vec{a} -tezlik beradi.

X va Y kordinata o'qlarini rasmda ko'rsatilgandek qilib yo'naltiramiz. N nuqtaning ikkinchi qonuni vektor ko'rinishida quyidagicha yoziladi:

$$m\vec{a} = m\vec{g} + \vec{N} + \vec{F}_{ishq}$$

Bu tenglamani skalyar ko'rinishda yozish uchun vektorning X va Y o'qlaridagi proyeksiyalarini topish kerak. X o'qidagi proeksiyalaridan boshlaymiz.



A tezlanish a vektorining X o'qidagi a_x proeksiyasi musbat bo'lib, moduli a vektorining moduliga teng: $a_x = a \cos \alpha$ (Fishq) x proeksiyasi musbat (bo'lib, moduli a vektorining moduliga teng: $a_y = a \sin \alpha$) va ABD uchburchakdan ko'rinishicha, $mgsina$ ifodaga teng. $(F_{ov})_x = mgsina$. $(F_{ishq})_x$ proeksiyasi manfiy bo'lib, $-F_{ishq}$ ga teng. Nihoyat, vektorning N proeksiyasi nolga teng, ya'ni: $N \cos \alpha = 0$ Nyutonning ikkinchi qonunining skalyar ko'rinishdagi tenglamasi quyidag ko'rinishda yoziladi: $ma = mgsina - F_{ishq}$. Endi V o'qdagi proeksiyalarini topamiz: a proeksiya nolga teng (a vektor V o'qqa tik yo'nalgan), $a_y = 0$. $(F_{ov})_y = 0$ proeksiya manfiy ADC uchburchakdan ko'rinishicha : $(F_{ov})_y = -mg \cos \alpha$ ga teng. N proeksiya musbat va N vektorining moduliga teng, $n = n$. Nihoyat $(F_{ishq})_y$ proeksiya nolga teng, yani: $(F_{ishq})_y = 0$. U holda Nyutonning ikkinch qonunining tenglamasi bunday yoziladi: $0 = N - mg \cos \alpha$, yoki $N = mg \cos \alpha$

Ma'lumki, ishqalanish kuchining moduli N ga teng. Shuning uchun $N = mg \cos \alpha$ ifodani hisobga olib ishqalanish kuchining ifodasini yozamiz.

$$F_{ishq} = \mu mg \cos \alpha$$

Ishqalanish kuchining bu ifodasini $ma = mgsina - F_{ishq}$ formulaga qo'yamiz.

$$a = g(\sin \alpha - \mu \cos \alpha)$$

Bu a tezlanish javobdan ko'rinishicha erkin tushish tezlanishi g dan kichik.

Qiya tekisliklar amalda jismlar pastga yoki yuqoriga harakat qilganda j ni kamaytirishga imkon beradigan qurilmalar sifatida ishlatiladi.

4. Qaychi bilan ishlaganimazda ham kuchdan yutamiz. Qaychi ham richagdir. Bu richagning aylanish o`qi qaychining ikkala yarmini birlashtiruvchi vint orqali o`tadi. Qaychini ushlayotgan odam qo`lining muskul kuchi harakatlantiruvchi F_1 kuch bo`ladi, qaychida qirqilayotgan materialning qarshiligi qarshi ta`sir qiluvchi F_2 kuch bo`ladi. Qog`oz qirqishda mo`ljallangan qaychining tig`i bilan dastasining uzunligi deyarli teng bo`ladi, chunki qog`oz qirqishga uncha ko`p kuch talab qilinmayidi. Turli ko`rinishdagi richaglar ko`pchilik mashinalarda bor. Tikuv mashinasining dastasi, velosipedning pedali yoki qo`l tormozi, yozuv mashinkasi va boshqalar richaglarga misol bo`ladi.

5. Richagning tuzilishi va ishlashini ko`rib chiqqanda biz ishqalanishni, shuningdek, richag og`irligini hisobga olmadik. Quyidan kuchning bajargan ishi, yani butun ishi yukni ko`tarishda yoki biror qarshilikni yengishda bajarilgan foydali ishga tengdir. Amalda mexanizm yordamida bajarilgan butun ish fiydali ishdan hamma vaqt bir oz ortiq bo`ladi. Ishning bir qismi mexanizmdagi ishqalanishni yengish va uning ayrim qismlarini siljitishga sarf bo`ladi: M; yukni ko`tarishda ko`char blok qo`llanilganda, blok va arqonni ko`tarish hamda blok o`qdagi ishqalanishni engish uchun qo`shimca ish bajarshdato`g`ri keladi: Demak, foydali ishni A_1 bilan, butun ishni A bilan belgilab quyidagini yozish mumkin: $F < A$ yoki $A_1/A = 1$
Foydali ishning butun ishga nisbatan mexanizmning foydali ish koeffisienti deb ataladi va qisqacha F.I.K. deb belgilanadi: $F.I.K = (A_1/\Phi) * 100\%$

Nazorat savollari

1. Mexanizmning "ltin qoidasi" eganda nimani tushunasiz?
2. Ko`char blokning ko`chmas blokdan uzunligi nimada va uning sababi?
3. Qiya tekislik nima uchun ishlatiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.M. Strelkov, Mexanika. Toshkent, „O`qituvchi“ nashriyoti 1975 yil.
2. S.E. Frish, A.V. Timoreva, Umumiy fizika kursi I-tom. Toshkent "O`qituvchi" nashriyoti. 1971, 1972, 1973 yil.
3. M.O`lmasova va boshqalar. Fizika mexanika, molekulyar fizika va issiqligi. Toshkent "O`qituvchi" nashriyoti 1970 yil.
4. M.M. Arxangeliskiy, Kurs fizika mexanikom "prosvemleniy" 1970 yil.
5. S.Y. Xaykin. "Fizicheskiy osnovi" mexanikom "prosvemleniy" 1975 yil.

Molekulalar tezliklari va ularning taqsimot qonunlari.

Reja:

1. Maksvell taqsimot.
2. Bol'tsmon taqsimot.
3. Gazlarda ko'chish hodisasi.

Tayanch iboralari: Maksvell taqsimot, Bol'tsmon taqsimoti, diffuziya, issiqlik o'tkazuvchanlik, ichki ishqalanish, kuchish tenglamasi.

Ma'lumki gaz molekulalari doimo harakatda bo'ladi. Bu harakat natijasida ular tezlikka ega bo'ladilar. Gaz molekulalarining ilgarilanma harakati o'rtacha kvadratik tezligini topish uchun molekulalarning ilgarilanma harakati o'rtacha kinetik energiyasining ilgari olingan ifodasini topomiz.

$$W = \frac{mv^2}{2} ; ; \quad W = \frac{3}{2} \cdot kT$$

Bu ifodalarning o'ng qismlarini tenglashtirib quyidagini hosil qilamiz.

$$\frac{mv^2}{2} = \frac{3}{2} kT \quad v = \sqrt{\frac{3kT}{m}} = \sqrt{\frac{3RT}{Nm}}$$

Bu tenglikdan $M = Nm$ bo'lsa tengligimiz bunday ko'rinishda ega bo'ladi.

$$v = \sqrt{\frac{3RT}{M}} \quad (1)$$

Bundan esa gaz uchun molekulalarning o'rtacha kvadratik tezligi absalut temperaturadan chiqarilgan kvadrat ildizga proporsional va faqat temperaturaga bog'liq ekanligi kelib chiqadi.

Masala: Kislarot molekulalarining $0^{\circ}C$ temperaturadagi o'rtacha kvadratik tezligini hisoblang.

$$v = \sqrt{\frac{3RT}{M}}$$

Berilgan: Echish:

$$v = \sqrt{\frac{3 \cdot 8.32 \cdot 10^3 \frac{\text{Ж}}{\text{град} \cdot \text{кмоль}} \cdot 273\text{К}}{32 \cdot \frac{\text{кг}}{\text{моль}}} = 460 \frac{\text{м}}{\text{с}}}$$

$$T = 273\text{К}$$

$$M = 32 \frac{\text{кг}}{\text{кмоль}}$$

$$R = 8.32 \cdot 10^3 \frac{\text{Ж}}{\text{град} \cdot \text{кмоль}}$$

$$v = ?$$

O'rtacha kvadratik tezlik molekulalar harakatining faqat statistic xarakteristikasidir. Haqiqatdan ham molekulalar biror T temperaturada turli v tezliklar bilan harakatlanadi. Tezliklarning butun diapazonini tezlikning juda kichik Δv ga ting intervallariga bo'lamiz hamda biz tezliklar intervaliga biror Δn molekulalar soni

keladi. $\frac{\Delta n}{\Delta v}$ nisbat tezlikning har bir birlik intervaliga qancha molekula to'g'ri kelishini, boshqacha aytganda molekularning tezliklar bo'yicha taqsimotini bildiradi. Bu taqsimot funksiyani birinchi bo'lib ingliz olimi **Maksvell** nazariy bilan ehtimollar nazariyasi asosida aniqlagan edi. Marsvell taqsimot funksiyasi Maksvell qonuni deb atalgan quydagi formula bilan ifodalanadi.

$$\frac{\Delta n}{\Delta v} = n \frac{4}{\sqrt{\pi}} \left(\frac{M}{2RT} \right)^{\frac{3}{2}} \cdot e^{-\frac{M}{2RT} \cdot v^2} \quad (2)$$

bu erda n -gaz molekularining umumiy soni M -kilomol' gazning massasi, R -universal gaz doimisi, e -natural logarifimlar asosi.

Maksvell qonunining matematik analizdan taqsimot funksiyasi $v \rightarrow 0$ da va $v \rightarrow \infty$ da nolga intiladi.

$$v = \sqrt{\frac{3RT}{M}}$$


bo'lganda o'zining maksimumiga ega degan xulosa kelib chiqadi. Bu tezlikni v_3 bilan belgilaymiz va eng ehtimol tezlik deb ataladi. Eng ehtimol tezlik deb-shunday tezlikka aytiladiki, uning yaqinida birlik intervalga eng ko'p molekular soni to'g'ri keladi va tezlik quydagi formula bilan hisoblaniladi.

$$v_3 = \sqrt{\frac{2RT}{M}} \quad (3)$$

Maksvell qonunining analiz qilishdan ko'rinib turibdiki bu qonun grafik ravishda koordinatalar boshidan chiqib $v_3 = v$ da maksimumga erishuvchi va so'ng absissalar o'qiga asimptotik yaqinlashuvchi egrichiziq ekan.

Maksvell qonunidan o'rtacha arifmetik tezlik \vec{v} ning ifodasini topish mumkin.

$$v = \sqrt{\frac{8RT}{\pi M}} \quad (4)$$




1-расм

(1)(2)(3) formulalardan v, v_3 va $\vec{v} \neq v$ lar bir-biridan faqat son koeffisientlari bilan farq qilishi va $v > \vec{v} > v_3$ ekanligi kelib chiqadi. Absissalar o'qiga tezliklar Δn intervalni belgilaymiz va uning chegaralarining ordinatalarini chizamiz shtirixlangan to'g'ri to'rtburchakning yuzi $\Delta v = \frac{\Delta n}{\Delta v} = \Delta n$ ga tengligi ko'rinadi, ya'ni bu yuzga Δn

intervaldagi tezlikka ega bo'lgan molekular soniga teng. Binobarin butun taqsimot egri chiziq bilan absissalar o'qi orasidagi maydon gaz molekularining umumiy soni n ga teng. Gaz tempraturasi o'zgarganda barcha molekularining harakat tezligi o'zgaradi va eng ehtimol tezlik ham o'zgaradi. Shuning uchun egri chiziqning maksimumi tempratura ko'tarilganda o'nga yoki tempratura pasayganda chapga suriladi. Biroq egri chiziq bilan chegaranilgan maydon o'zgarmasligi kerak, chunki gaz molekularining umumiy soni tempraturaga bog'liq emas. Shunga bog'liq holda tempratura ko'tarilganda taqsimot egri chizig'i cho'zilib pasayadi, tempratura pasayganda esa aksincha torayib ko'tarilgan.

Maksvell nazariyasini keyinchalik 1920 yilda nemis fizigi **Shtern** 1929 yilda **Lammert** tajribalar asosida molekular tezligini aniqladilar. Mukammallashtirilgan Shternva Lammert asboblari hamda keyinchalik o'tkazilgan aniqroq aksperimentlar atomlarning tezliklari bo'yicha taqsimlanishiga doir tajriba ma'lumotlarining Maksvell nazariy qonuni bilan mos kelishi aniqlandi.



2-pacm

2. Absolyut tempraturada barcha molekular yer sirtiga tushib qolgan bo'ladi. Yuqori tempraturalarda aksincha molekular soni balandlikka sekinroq kamayadi, natijada molekular balandlik bo'yicha taqsimoti esa 2 ta tendensiya ta'siri natijasida qaror topadi.

1) Molekulalarning mg kuch bilan xarakterl anadi. Yerga tortilishi ularni yer sirtiga tushurishga intiladi.

2) kT kattalik bilan xarakterlanadigan issiqlik harakati molekularni barcha baiandliklar bo'ylab tekis sohib yuborishga intiladi. m qancha katta va T qancha kichik bo'lsa birinchi tendensiya kuchliroq ta'sir ko'rsatadi va molekular yer yuziga yaqinroq joyda to'planishadi. $T = 0$ bo'lgan pirovart holatda issiqlik harakati butunlay to'xtaydi va molekular yerning tortishish kuchi ta'siri ostida yer yuziga joylashadi. Temperature yuqori bo'lganda issiqlik harakati ustunlik qiladi va molekularning zichligi balandlikka ko'tarilgan sari sekin kamaya boradi. Barometrik formulada P ni nkT bilan almashtirsak hajm birligidagi molekular soni balandlikka qarab o'zgarish

qonunini topamiz $n = n_0 e^{-\frac{Mgh}{kT}}$.

Bu erda n_0 - balandligi nolga teng bo'lgan joyda hajm birligidagimolekular soni $n + h$ balandlikda hajm birligidagi molekular soni.

Topilgan bu ifodani almashtirish mumkin, buning uchun $\frac{M}{R}$ nisbatni unga teng

bo'lgan $\frac{m}{k}$ nisbatga almashtirish lozim, bu erda m -bitta molekulaning massasi k -

Bolsman doimiysi.

$$n = n_0 e^{-\frac{mgh}{kT}} \quad (2.1)$$

Shu formula yordamida biz yuqoridagi fikrlarimizni ifodalasak. Har xil balandlikdagi molekula har xil potensial energiyaga ega bo'ladi. $E_p = mgh$ (2.2)

Molekulalarning balandlik bo'yicha taqsimotini ko'rsatuvchi (1) formula ularning potensial eneregiya qiymatlari bo'yicha taqsimotini ham ifodalaydi. (2) formulani hisobga olib (1) formulani quydagicha yozish mumkin.

$$n = n_0 e^{-\frac{E}{kT}} \quad (3)$$

Bu erda n_0 - molekularning potensial energiyasi nolga teng bo'lgan joyda olingan birligi hajmidagi molekular soni E - faraning molekular potensial energiyasi n ga teng bo'lgan nuqtalardagi hajm birligida bor bo'lgan molekular soni (3) formuladan shunday xulosa kelib chiqadi: potensial energiyasi kam bo'lgan joylarda molekular

zichroq joylashadi va aksincha, potensial energiyasikatta bo'lgan joyda molekularlar zichligi kamroq bo'ladi. (3) formulaga muvofiq molekularlarning potensial energiyasi qiymatlari E_{p_1} va E_{p_2} bo'lgan nuqtalardagi n_1 va n_2 ning bir-biriga nisbati quydagicha bo'ladi.

$$\frac{n_1}{n_2} = e^{-\frac{E_{p_1} - E_{p_2}}{kT}} \quad (4)$$

Bolsmon shuni isbot qiladiki (3) taqsimot formulasi va undan kelib chiqadigan (4) formula xaotik issiqlik harakati holatidagi istalgan bir xil zarralar to'plami uchun faqat yer tortish kuchlarining potensial maydonigina emas, balki kuchlarning har qanday potensial maydonida ham to'g'ri ekanini ham isbot qiladi. Shu sababli bu munosabat Bol'smon taqsimoti deyiladi. Maksvell qonuni zarralarning kinetik energiyasi qiymatlari bo'yicha taqsimotini ko'rsatgani holda, Bolsmon qonuni zarralarning potensial energiyasi qiymatlari bo'yicha taqsimotni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan ikkala taqsimotni bitta Maksvell – Bol'smon qonuni qilib birlashtirish mumkin, bu qonunga muvofiq tezliklar v bilan $v+dv$ asosida yotadigan molekularlarning hajm birligi ichidagi soni quydagiga teng.

$$dn_{E_p v} = n_0 4\pi \left(\frac{m}{2\pi kT} \right)^{\frac{3}{2}} e^{-\frac{E_p + \frac{mv^2}{2}}{kT}} v^2 dv \sim e^{-\frac{E}{kT}} v^2 dv \quad (5)$$

bu erda n_0 son $E_p = 0$ bo'ladigan nuqtada olingan hajm birligidagi molekularlar soni **E**- molekularlar to'liq energiyani bo'lib u kinetik va potensial energiyalar yig'indisiga teng

3. Gaz molekularining xaotik harakati tufayli gaz hamma vaqt uzluksiz aralashib turadi. Gazlarda bo'ladigan quyidagi muhim hodisalar shunga bog'liqdir.

Agar gaz hajmining turli qismlarida dastlab zichlik bir xil bo'lmasa, vaqt o'tishi bilan zichlik baravarlashadi. Xuddi shuningdek bir-biriga tegib turgan ikki turli gaz o'zaro tekis aralashadi. Bu hodisa diffuziya deyiladi. Turli qismlarining dastlabki temperaturasi turlicha bo'lgan gaz hajmida vaqt o'tishi bilan temperatura baravarlashadi, temperaturalarining bunday baravarlashishi molekularning o'z energiyalari $W = \frac{i}{2} kT$ ni olib ko'chish hisobiga bo'ladi. Bu hodisa issiqlik o'tkazuvchanlik deyiladi. Gaz qattiq **AB** devor bo'ylab oqayotgan bo'lsin. Agar devordan ancha

Термодинамика конунлари ва уларнинг кулланиши.

Режа:

1. Термодинамиканинг биринчи конуни ва баъзи жараёнларда тадбири.
2. Термодинамиканинг иккинчи конуни.
3. Иссиклик машина ва уларнинг фойдали иш коэффициенти.

Термодинамика –иссиклик ва иш тугрисидаки фан .

Термодинамика XXI асрнинг биринчи ярмида фан сифатида шаклланди. Унинг юзага келиши ва ривожланиши иссиклик машиналарининг яратилиши билан боғлиқ булган . Дастлаб термодинамика ёнилги энергиясини механик энергияга айлантириш билан боғлиқ булган . Термодинамиканинг асосчиларидан бири франсуз олими Карно эди . У 1824-йил узининг «Оловни харакатлантирувчи куч ва бу кучни ишлата оладиган машиналар хақида мулохазалар» номли асарида термодинамикага асос солди .

Биринчи конун: системага берилган иссиклик микдори системасининг ички энергиясининг узгаришига ва системанинг ташки жисмлар устида иш бажаришга кетади . $Q=U+A$

Энергия деб . Турли курунишдаги характерловчи Скаляр физик катталиқка айтилади.

Иш деб, бир итурдаги энергиянинг бошка турдаги энергияга айланиш мейёрини характерлайди.

Термодинамик жараён деб, Термодинамик системасининг бир холатдан бошкасига утиш ходисасига айтилади.

Изохорик жараён деб, газнинг узгармас хажмда бир энергияси хам узгармас булади. $U=const$, $U=0$ Шунинг учун устида бажарилган иш газ термостатга бериши мумкин булган иссиклик микдорига тенг. $Q=At$

Агар ташки босим секин-аста камайтирса газ шунчалик секин кенгайди. Газ иш бажаради ва термостатдан иссиклик микдорини бажарилган ишга тенг булган иссиклик микдорини олади. $Q_t=At/$

Изотермик жараёнда газга берилаётган иссиклик микдори газ бажарган ишга тенг.

Адиабатик жараён деб, бунда система иссиклик алмашинуви натижасида энергия олмайди ва бермайди. $Q=0$

